

PUDRAT SHARTNOMASI № _____

2022 y. «23» 11

76-3-44-OB/2022-son

O'smat shaxarchasi

Baxmal tuman Obodonlashtirish boshqarmasi kelgusi o'rinlarda «**Buyurtmachi**» deb atalib xamda Nizomga asosan ish yurituvchi nomidan direktor **Abdullaev Mingboy Suyunovich** bir tomondan va «**MANSUR STROY HOUSES**» MCHJ keyingi o'rinlarda «**Pudratchi**» deb atalib xamda Nizomga asosan ish yurituvchi nomidan raxbar **Sheraliev O'ktam** ikkinchi tomondan mazkur pudrat shartnomasini quyidagilarga asosan tuzdilar.

I. Ta'riflar

1. Mazkur shartnomada quyidagi ta'riflar qullaniladi:

ijro xujjatlari - naturada bajarilgan ishlar yoki ishlarni bajarish uchun ma'sul bo'lgan shaxslar tomonidan ularga kiritilgan o'zgarishlarning ushbu ishchi chizmalar turkumi, sertifikatlar, texnik pasportlar va o'rnatilgan asbob-uskunalarining sifatini ishlarni bajarishda qullanilgan materiallar, konstruksiyalar va detallarning sifatini tasdiqlovchi boshqa xujjatlar, berkitiladigan ishlar tasdiqlanganligi to'g'risidagi dalolatnomalar, ayrim ma'suliyatli konstruksiyalar oraliq davrda qabul qilinishi to'g'risidagi dalolatnomalar, montaj qilingan asbob-uskunalarining yakka tartibdagi sinovi to'g'risidagi dalolatnomalar, ishlarni bajarish daftarlari xamda qurilish normalari va qoidalarida nazarda tutilgan boshqa xujjatlar; Qurilish maydoni - mazkur shartnoma (kontrakt) doirasida barcha ishlarni bajarish davrida dalolatnoma bo'yicha Buyurtmachi tomonidan Pudratchiga berilgan yer uchastkasi. Ob'ektning qurilish maydoni chegarasi ajratib quyiladi yoki bosh rejaga muvofiq belgilanadigan boshqa belgilar bilan belgilab quyiladi. Vaqtinchalik ishlar - Pudratchi tomonidan qurilish maydonida o'rnatiladigan va ishlarni bajarish uchun zarur bo'lgan xar qanday tipdagi vaqtinchalik binolar vainshootlar. Berkitiladigan ishlar - sifati va yakunlanganligini keyingi ishlar bajarilgandan keyin aniqlash mumkin bo'lmagan keyinchalik bajariladigan ishlar va konstruksiyalar bilan berkitiladigan ishlar; Shartnoma narxini bo'lib chiqish: ishlarning xar bir bosqichni yoki turlari: qiymatining aniq belgilagan xolda shartnoma bo'yicha ob'ektning umumiy qiymatini bosqichlarga taqsimlash.

II. Shartnoma mavzusi.

2. Pudratchi mazkur shartnoma shartlariga asosan **Baxmal tumani Navbaxor MFY qoraqursoq qishlog'idagi ichki yo'llarni joriy ta'mirlash (6.981 km)** ob'ekti buyicha loyixa xujjatlarida kuzda tutilgan ob'ektning tayyor xolda kurish buyicha kurilish ishlarini bajarish majburiyatini oladi.

3. Buyurtmachi Pudratchiga qurilish ishlarini bajarish uchun zarur sharoitlar yaratish, ularni qabul qilish va to'lovni amalga oshirish majburiyatini oladi.

III. Shartnoma bo'yicha ishlar qiymati.

4. Mazkur shartnoma bo'yicha Pudratchi tomonidan bajariladigan, **18.11.2022 yildagi 188321-son bayoni** bilan tasdiqlangan ishlar qiymati soliqlar, yig'imlar va ajratmalarni o'z ichiga olgan xolda, joriy narxlarda QQS bilan jami **863 000 000 (Sakkiz yuz oltmish uch million)** so'mni tashkil etadi. (*Pudratchi yagona solik tulovchisi*)

5. Ishlar qiymati uzil-kesil xisoblanadi va keyinchalik qayta ko'rib chiqilishi mumkin emas. Qo'yidagi xollar bundan mustasno:

- qurilish muddatini ko'paytirishga yengib bo'lmaydigan kuch (fors-major) xolatlari sabab bo'lganda;
- ishlar xajmi Buyurtmachi tomonidan o'zgartirilganda;
- ob'ektning qurilishi bir yildan ortiqqa o'zgartirilganda.

6. Qurilish muddati bir yildan ortiq bo'lganda ikkinchi yilga va keyingi yillarga shartnomaviy narxlarni aniqlashtirish qonun xujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

7. Tegishli asoslar mavjud bo'lganda sanab o'tilgan o'zgarishlar Buyurtmachi bilan Pudratchi o'rtasidagi shartnomaga qo'shimcha bitim bilan rasmiylashtiriladi.

IV. Pudratchining majburiyatlari.

8. Mazkur shartnoma bo'yicha Pudratchi mazkur shartnomaning II bo'limida nazarda tutilgan ishlarni bajarish uchun:

- Barcha ishlarni mazkur shartnomada hamda unga 2-ilovaga muvofiq ishlarni bajarish jadvalida nazarda tutilgan xajmda va muddatlarda, inshoot narxidagi ishlarni eng kamida 50 foizini o'zining kuchlari bilan bajarish hamda ishni Buyurtmachiga mazkur shartnoma shartlariga muvofiq topshirish;

- 1 ilovaga muvofiq qurilish maydoniga zarur bo'lgan, muvofqlik sertifikatlariga ega hamda qurilish maydoniga zarur qurilish materiallari, buyumlar, konstruksiyalar, jixozlar, asbob-uskunalar va butlovchi buyumlar, qurilish texnikasini yetkazib berish, ularni qabul qilish, tushirish, omborga joylash va saqlash;
- qurilish maydoni xududida vaqtinchalik inshootlar qurish;
- bosh pudratchi yordamchi pudratchilar bilan shartnoma tuzishda Buyurtmachi bilan kelishgan xolda shartnoma tuzishi lozim, aks holda imzolangan shartnoma umumiy qiymatining 4 foizi miqdorida Buyurtmachiga jarima to'laydi;
- qurilish jarayonida jalb qilingan ishchi xodimlarni belgilangan tartibda rasmiylashtirib, ijtimoiy himoyasi va texnik xavfsizligini ta'minlash.
- ishchilarni texnik xavfsizligiga rioya qilgan holda, maxsus qurilish kiyim-kechagi, yotoq o'rni, madaniy dam olishlari uchun sharoit yaratib berish va issiq ovqat bilan ta'minlash;
- qurilish tavakkalchiliklarini sug'urta qilish;
- mazkur shartnoma bo'yicha ob'ektni foydalanishga qabul qilib olish to'g'risidagi dalolatnoma imzolangan kundan boshlab bir oy muddatda qurilish maydonini uziga tegishli qurilish mashinalari va asbob-uskunalari, transport vositalari, anjomlar, priborlar, inventarlar, qurilish materiallari, buyumlar, konstruksiyalar hamda vaqtinchalik binolardan bushatish;
- qurilish maydonini quriqlashni ta'minlash;
- ob'ektda olib borilayotgan qurilish-ta'mirlash ishlarini nazorat qilish va tezkor ma'lumotlarni olish maqsadida videokuzatuv moslamalari va sifatli aloqa vositalari bilan ta'minlash;
- karantin (pandemiya va epidemiya) davrida qurilish-montaj ishlarini amalga oshirishda ob'ektda ishlayotgan barcha ishchi xodimlarni muhofaza qilish maqsadida, karantin qoidalari va sanitariya-gigiena talablariga qat'iy rioya qilinishini ta'minlash va doimiy nazorat o'rnatish, aks holda buyurtmachi tomonidan jarima qo'llanib, pudrat shartnomasi bekor qilinadi.
- mazkur shartnomada nazarda tutilgan barcha majburiyatlarni to'liq xajmda bajarish majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

9. Pudratchi har hisobot oyining 25 sanasigacha Buyurtmachiga bajarilgan ishlar to'g'risida hisob-faktura va hisobotlarni taqdim etishi zarur, aks holda buyurtmachi pudratchi tomonidan kech taqdim etilgan hisob-faktura qiymatining 5 foizi miqdorida jarima hisoblash huquqiga ega.

10. Pudratchi mazkur shartnoma bo'yicha barcha ishlarni o'z kuchi bilan va yordamchi pudratchilar tomonidan (qurilish ishlarining 50 foizidan ko'p bo'lmagan) zarur tarzda bajarilishi hamda ob'ektning foydalanishga topshirilishi uchun Buyurtmachi oldida to'liq mulkiy javob beradi.

- Pudratchi loyixa-smeta xujjatlari va ish xajmlariga Buyurtmachi hamda loyixachi tashkilotning ruxsatisiz o'zgartirish kiritmaydi. Agarda o'z xoxishi bilan o'zgartirgan taqdirda Buyurtmachi majburiyatni o'z zimmasiga olmaydi.

V. Buyurtmachining majburiyatlari

11. Mazkur shartnomani bajarish uchun buyurtmachi:

- mazkur shartnoma imzolangan kundan boshlab uch kun muddatda mazkur shartnomaning ilovasiga muvofiq ishlarni bajarish uchun yaroqli bo'lgan qurilish maydonini ob'ekt qurilishi va qurilish tugallanguncha bo'lgan davrda dalolatnoma bo'yicha Pudratchiga berish;
- ishlar bajarilishi ustidan doimiy qurilishda texnik nazorat va mazkur shartnomada qayd etilgan Pudratchi tomonidan qabul qilingan majburiyatlarni va boshqa funksiyalarga rioya etilishini nazorat qilish. Pudratchidan tugallangan ishlarni qabul qilib olishni ta'minlash;
- Pudratchining barcha murojaatlarini 5 kun muddatda ko'rib chiqish va qaror qabul qilish;
- Moliyalashtirish jadvaliga binoan Pudratchiga 3-ilovaga muvofiq avans (bo'nak) berish va joriy moliyalashtirishni amalga oshirish;
- Mazkur shartnoma imzolangan kundan boshlab bir oy davomida Pudratchiga ishlarni qabul qilish uchun zarur bo'lgan ijro xujjatlari ro'yxatini taqdim etish;
- Mazkur shartnomada nazarda tutilgan majburiyatlarni to'liq xajmda bajarish majburiyatini oladi;

12. Agar pudratchi tomonidan har hisobot oyining 25 sanasigacha bajarilgan ishlar to'g'risida hisob-faktura va hisobotlarni topshirilmasa, Buyurtmachi bajarilgan qurilish-montaj ishlarini moliyalashtirmaydi. Ushbu shartnomaning 3-ilovasi bajarilmaydi.

VI. Ishlarni bajarish muddatlari

13. Shartnoma:

Milliy valyuta "so'mda" o'zaro hisob-kitob qilinganda tomonlar uni imzolagan paytdan boshlab;

14. Pudratchi mazkur shartnoma imzolangan kundan boshlab o'z aylanma mablag'lari hisobidan ishlarni bajarishga kirishadi.

15. Tanlov (tender) komissiyasining qaroriga asosan **2022 yil 19 dekabrgacha** ob'ektda ish hajmlarini sifatli bajarib, foydalanishga topshirilishi belgilansin.

16. Mazkur shartnoma bo'yicha ishlar ishlarni bajarish jadvaliga muvofiq amalga oshiriladi.

VII. To'lovlar va hisob-kitoblar

17. Buyurtmachi Pudratchiga shartnoma bo'yicha ishlar umumiy joriy qiymatining 30 foizi miqdorida avans mablag'ini o'tkazadi.

18. Buyurtmachi tomonidan Pudratchiga avans berish va joriy moliyalashtirish uchun moliyalashtirish va ishlarni bajarish jadvallari asos hisoblanadi (3-ilova).

19. Joriy moliyalashtirish bajarilgan ishlar xajmi va sifati tekshirilgandan keyin, har oyda ajratilgan avansni mutanosib ravishda ushlab qolishni hisobga olgan xolda, ishlarni bajarish hamda moliyalashtirish jadvallariga muvofiq ob'ektning umumiy shartnomaviy joriy qiymatining 95 foizigacha to'lov amalga oshiriladi.

- Mazkur shartnomada belgilangan ob'ektning 5 foizlik mablag'i kafolat muddati tamom bo'lgandan keyin, tegishli xujjatlar rasmiylashtirilgandan so'ng to'lov amalga oshiriladi.

- Buyurtmachi ushbu ob'ekt uchun moliyalashtiruvchi organlar tomonidan ajratilgan mablag'ni hisobga olgan xolda, mazkur shartnomaning 17,18 va 19 bandlari ijrosi hamda shartnomaning 3-ilovasidagi moliyalashtirish majburiyatlarini amalga oshiradi.

20. Pudratchi ob'ekt foydalanishga topshirilgunga qadar mazkur shartnoma bo'yicha ob'ektga mulk xuquqini uzida saqlab qoladi. Ob'ekt Buyurtmachiga topshirilgunga qadar ob'ektni tasodifiy yo'q qilinishi va shikastlanishi xavfi Pudratchining zimmasida bo'ladi.

21. Buyurtmachi mazkur shartnoma bo'yicha o'z zimmasiga qabul qilgan majburiyatlarni shartnoma kuchga kirgan kundan boshlab 30 kun (moliyalashtirish yilida) mobaynida bajarmagan taqdirda, Pudratchi bu xaqda qonun xujjatlarida belgilangan tartibda Buyurtmachini yozma ravishda xabardor qilgan xolda, shartnomaga o'zgartirishlar kiritish xuquqiga egadir. Bunda Buyurtmachi Pudratchi tomonidan bajarilgan ishlar uchun xaq tulashtan ozod qilinmaydi.

- Mazkur ish turlariga moliyalashtiruvchi organlar tomonidan mablag' moliyalashtirilmagan taqdirda "Buyurtmachi" to'lov uchun majburiyat va javobgarlikni o'z zimmasiga olmaydi.

VIII. Ishlarni bajarish

22. Buyurtmachi qurilish maydonida o'z vakilini - texnik auditorni tayinlaydi, u Buyurtmachining nomidan bajarilayotgan ishlar xajmi va sifati ustidan texnik nazoratni amalga oshiradi, shuningdek, Pudratchi tomonidan foydalaniladigan materiallar va asbob-uskunalarining shartnoma shartlariga va ish xujjatlariga muvofiqligini tekshiradi.

23. Texnik auditor ishlar bajarilishining va shartnomaning butun davri mobaynida ishlarning barcha turlari bilan to'siqsiz tanishish xuquqiga egadir.

24. Pudratchi texnik-auditorni qurilish maydoniga borishda ko'maklashadi va tashrif davomida ishlash uchun joy hamda tegishli vositalar bilan ta'minlaydi. Texnik-auditor Pudratchi tomonidan o'tkaziladigan qurilish maydonida ishlarni amalga oshirish chog'ida paydo buluvchi masalalarni xal qilish bo'yicha yig'ilishlarda muntazam ravishda qatnashadi.

25. Pudratchi ishlarni bajarish loyixasiga va mazkur shartnomaning VI bo'limida ko'rsatilgan muddatlar bilan muvofiqlashtirilgan o'z rejasi va jadvaliga binosan ob'ektda ishlarni bajarishni mustaqil ravishda tashkil etadi.

26. Pudratchi ob'ektda ishlarni olib borish tartibini "Qurilish sohasida hududiy nazorat inspeksiyasi" bilan kelishadi va unga rioya etilishi uchun qonun xujjatlarida belgilangan tartibda javob beradi.

27. Qurilish maydonida (ob'ektda) umumiy tartib va intizomni hamda texnika xavfsizligiga rioya etilishini ta'minlash Pudratchining vazifasi hisoblanadi.

28. Buyurtmachi qurilish maydonini berish to'g'risidagi dalolatnoma bilan bir vaqtda Pudratchiga ortiqcha tuproq va qurilish axlatini joylashtirish va yetishmayotgan tuproqni qazib olish uchun joy ajratish to'g'risidagi xujjatlarni beradi.

29. Buyurtmachi qurilish maydonini berish to'g'risidagi dalolatnoma imzolangan kundan boshlab 3 (uch) kun muddatda qurilish maydonini belgilash bo'yicha ishlarni bajarish va ob'ektni bog'lash (privyazka) qilish uchun Pudratchiga geodeziya nuqtalari, ularning koordinatlari va balandlik belgilarini taqdim etadi.

30. Pudratchi geodeziya nuqtalariga, liniyalar va darajalarga nisbatan ob'ektning to'g'ri va zarur tarzda belgilanishi, shuningdek, balandlik belgilari, o'lchamlari va bo'lish uqlarining muvofiqligi to'g'ri joylashganligi uchun javob beradi.

Agar ishlarni bajarish jarayonida amalga oshirilgan bo'lish va geodeziya ishlarida xatolar aniqlansa, Pudratchi Buyurtmachi bilan kelishgan xolda tegishli tuzatishlarni o'z hisobidan amalga oshiradi.

31. Pudratchi geodeziya ishlarida o'rnatiladigan koordinatlar va balandliklar, geodeziya belgilarining joylashishi sxemalari va javdallarni saqlaydi, ishlarni bajarish davrida va ular tugallangandan keyin dalolatnoma bo'yicha Buyurtmachiga beradi.

32. Qurilish maydonida ishlarni bajarish davrida kommunikatsiyalarni vaqtincha ulashni va ulash nuqtalarida yangidan qurilgan kommunikatsiyalarni ulashni Pudratchi amalga oshiradi.

33. Pudratchi o'zi tomonidan qurilishda qullaniladigan qurilish materiallari, asbob-uskunalar va butlovchi buyumlar, konstruksiyalar va tizimlar sifati loyixa xujjatlarida ko'rsatilgan spesifikatsiyalarga, davlat standartlarga, texnik shartlarga muvofiq bo'lishini hamda ularning sifatini tasdiqlovchi tegishli sertifikatlariga, texnik pasportlarga yoki boshqa xujjatlarga ega bo'lishini kafolatlaydi.

34. Aloxida berkitilgan konstruksiyalar va berkitiladigan ishlar tayyor bo'lishiga qarab ularni qabul qilish boshlanishidan 2 kun oldin Pudratchi Buyurtmachini va "Qurilish sohasida hududiy nazorat inspeksiyasi"ni yozma ravishda xabardor qiladi.

35. Qabul qilinadigan konstruksiyalar va ishlar tayyorligi Buyurtmachi va Pudratchi tomonidan mas'ul konstruksiyalarni oraliq qabul qilish dalolatnomalari hamda ularning "Qurilish sohasida hududiy nazorat inspeksiyasi" bilan kelishilgan shartlarida berkitiladigan ishlar tekshiruvini dalolatnomalari bilan tasdiqlanadi.

36. Pudratchi Buyurtmachining ishlarni bajarish daftariga kiritilgan yozma ruxsatnomasidan keyingina keyingi ishlarni bajarishga kirishadi.

37. Agar berkitiladigan ishlar Buyurtmachining tasdig'isiz bajarilgan bo'lsa yoki u bu xaqda xabardor qilmagan bo'lsa yoki kechikib xabardor qilingan bo'lsa, u xolda uning talabi bo'yicha Pudratchi Buyurtmachining ko'rsatmasiga muvofiq berkitiladigan ishlarning istalgan qismini o'z hisobidan ochishga, so'ngra esa uni tiklashga majburdir.

Pudratchi Buyurtmachining manfaatlariga jiddiy ta'sir qilmaydigan ish xujjatlaridan mayda chetga chiqishlarni Buyurtmachining rozilgisiz amalga oshirsa, u agar bularning qurilish sifatiga ta'sir etmaganligini isbotlasa javobgar hisoblanmaydi.

38. Agar Buyurtmachi Pudratchi va (yoki) uning yordamchi pudratchilari tomonidan ishlarning sifatsiz bajarilganligini aniqlasa, u xolda Pudratchi o'z kuchi bilan va qurilish qiymatini ko'paytirmasdan ushbu ishlarni ularning zarur sifatini ta'minlash uchun kelishilgan muddatda qayta bajarishga majburdir, ushbu shartnoma 37 bandining ikkinchi xatboshida ko'rsatilgan xollar bundan mustasno.

Agar Pudratchi sifatsiz bajarilgan ishlarni kelishilgan muddatlarda tuzata olmasa, Pudratchi ularni tuzatishning kechikishi oqibatida yetkazilgan zararlarni Buyurtmachiga to'laydi.

39. Pudratchi qurilish maydonini va unga tutash kucha polosasini, shu jumladan yo'l uchastkalari va yo'laklarni supurib sidiradi va ozoda saqlaydi, qurilish davrida maydondan qurilish axlatini Buyurtmachi tomonidan ko'rsatilgan joyga chiqarib tashlaydi.

40. Ishlar boshlangan paytdan boshlab ular tugallangungacha Pudratchi ishlarni bajarish daftarini yuritadi. Daftarda butun ishlarning borishi, Buyurtmachi va Pudratchining o'zaro munosabatlarida axamiyatga ega bo'lgan xolatlar (ishlarning boshlanishi va tamom bo'lishi sanasi, materiallar, asbob-uskunalar berilishi, xizmatlar ko'rsatilishi sanasi, ishlarni qabul qilib olinishi, o'tkazilgan sinovlar, materiallar o'z vaqtida yetkazib berilmasligi bilan bog'liq to'xtab qolishlar, qurilish texnikasining ishdan chiqishi to'g'risidagi ma'lumotlar, shuningdek, qurilishni tugallashni uzil-kesil muddatiga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan barcha ma'lumotlar) aks ettiriladi.

Agar Buyurtmachi ishlarning borishi va sifatidan yoki Pudratchining qaydlaridan qoniqmasa, u xolda ishlarni bajarish daftarida o'z fikrini bayon qiladi.

Pudratchi daftarda Buyurtmachi tomonidan asosli ravishda ko'rsatilgan kamchiliklarni 3 kun muddatda bartaraf etish chora-tadbirlarini ko'rish majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

IX. Ishlarni qo'riqlash.

41. Pudratchi ishlar boshlanishidan qurilish tugallangungacha va qurilishi tugallangan ob'ekt Buyurtmachi tomonidan qabul qilib olingunga qadar chetlari tusilgan qurilish maydoni xududida materiallar, asbob-uskunalar, qurilish texnikasi va boshqa mol-mulk zarur darajada qo'riqlanishini ta'minlaydi.

42. Tiklangan binolar va imoratlar, shuningdek, materiallar, asbob-uskunalar va boshqa mol-mulk ob'ekt qabul qilib olinganidan keyin saqlanishi uchun Buyurtmachi javob beradi.

X. Yengib bo'lmaydigan kuch (Fors-major) xolatlari.

43. Agar ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlar qisman yoki to'liq bajarilmasligi tabiat xodisalari va boshqa yengib bo'lmaydigan kuch xolatlari natijasida kelib chiqsa va agar bu xolatlar mazkur shartnomaning bajarilishiga bevosita ta'sir etsa, tomonlar bunday qisman yoki to'liq bajarmaslik uchun javobgarlikdan ozod etiladilar.

Mazkur shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarish muddati yengib bo'lmaydigan kuch xolatlari amal qilgan, shuningdek ushbu xolatlar yuzaga keltirgan vaqtga mutanosib ravishda o'zaytiriladi.

44. Agar yengib bo'lmaydigan kuch xolatlari yoki ularning oqibatlari bir oydan ko'p vaqtga chuzilsa, u xolda Pudratchi va Buyurtmachi ishlarni davom ettirish yoki ularni konservatsiya qilish uchun qanday choralar kurilishini muxokama qiladilar.

45. Agar tomonlar ikki oy ichida kelisha olmasalar u xolda tomonlarning xar biri shartnoma bekor qilinishini talab qilishga xaqlidir.

XI. Qurilishi tugallangan ob'ektni qabul qilib olish.

46. Qurilishi tugallangan ob'ektni qabul qilib olish shartnomani imzolash sanasida amalda bo'lgan belgilangan tartibga muvofiq mazkur shartnomada nazarda tutilgan barcha majburiyatlar tomonlar tarafidan bajarilgandan keyin, shuningdek qurilish tugallangan ob'ektlarni foydalanishga qabul qilib olishning belgilangan qoidalariga binoan amalga oshiriladi.

47. Ob'ektlarning foydalanishga tayyorligi to'g'risida Pudratchi Buyurtmachiga yozma bildirishnoma va inshoatlarni foydalanishga kabul kilish ishchi gurux dalolatnomasini beradi.

Buyurtmachi qurilishi tugallangan ob'ektni Pudratchi va Davlat qabul komissiyasi ishtirokida qabul qilib oladi.

48. Pudratchi qurilishi tugallangan ob'ektni qabul qilib olish boshlanishidan 5 kun oldin mazkur shartnomaning V bo'limiga muvofiq Buyurtmachi tomonidan belgilangan tarkibda 2 (ikki) nusxada ijro xujjatlarini beradi. Pudratchi Buyurtmachiga ushbu xujjatlar to'plami amalda bajarilgan ishlarga to'liq mos kelishini yozma ravishda tasdiqlashi kerak.

49. Ob'ekt Davlat qabul komissiyasi tomonidan rasmiy foydalanishga kabul kilingandan keyin Buyurtmachining mulkiga aylanadi.

XII. Kafolatlar.

50. Pudratchi:

barcha ishlar to'liq xajmda va mazkur shartnoma shartlarida belgilangan muddatlarda bajarilishini; loyixa xujjatlariga hamda qurilish me'yorlari, qoidalari va texnik shartlariga muvofiq barcha ishlarni bajarish sifatini;

o'zi tomonidan qurilish uchun qullaniladigan, muvofiqlik sertifikatlariga ega bo'lgan qurilish materiallari, asbob-uskunalar va butlovchi buyumlar, konstruksiya va tizimlar sifatini, ularning loyixa xujjatlarida ko'rsatilgan sertifikatsiyalarga, davlat standartlariga hamda texnik shartlarga muvofiqligini;

ishlarni qabul qilish va ob'ektdan foydalanishning kafolatli davrida aniqlangan kamchiliklar va nuqsonlarni o'z vaqtida bartaraf qilishni;

ob'ektdan foydalanilganda muxandislik tizimlari va uskunalarning foydalanish qoidalariga muvofiqligini kafolatlaydi.

51. Ob'ekt va unga kiradigan muxandislik tizimlari, asbob-uskunalar, materiallardan foydalanish va ishlarning kafolatli muddati tomonlar qurilish tugallangan ob'ektni qabul qilib olish to'g'risidagi dalolatnomani imzolagan kundan boshlab kamida 12 oy etib belgilanadi. Ob'ekt tomining kafolatli muddati kamida 24 oy etib belgilanadi.

52. Agar ob'ektdan foydalanishning kafolatli davrida aniqlanib, ular bartaraf etilgunga qadar foydalanishni davom ettirish imkonini bermaydigan nuqsonlar aniqlansa, u xolda kafolat muddati nuqsonlarni bartaraf etish davriga o'zaytiriladi. Nuqsonlar Pudratchi tomonidan uning o'z hisobi bilan bartaraf etiladi.

Mavjud nuqsonlar va ularni bartaraf etish muddatlari Pudratchi va Buyurtmachining ikki tomonlama dalolatnomasida qayd etiladi.

Agar Pudratchi bajarilgan ishlardagi nuqsonlar, sifatsiz va chala ishlarni, jumladan uskunalarning kamchiliklarini dalolatnomada ko'rsatilgan 15 kun muddat ichida bartaraf etmasa, u xolda Buyurtmachi mazkur shartnomaning VII bo'limida nazarda tutilgan kafolat summasini Pudratchidan ushlab qolish xuquqiga ega.

53. Pudratchi nuqsonlar va chala ishlar ko'rsatilgan dalolatnomani tuzishdan yoki imzolashdan bosh tortgan taqdirda, ularni tekshirib chiqish "Qurilish sohasida hududiy nazorat inspeksiyasi" tomonidan amalga oshiriladi, bu tomonlarning ushbu masala buyicha Jizzax tumanlararo iqtisodiy sudiga murojaat qilishini istisno etmaydi.

XIII. Shartnomani bekor qilish.

54. Buyurtmachi:

shartnoma kuchga kirgandan keyin qurilishning boshlanishi Buyurtmachiga bog'liq bo'lmagan sabablarga ko'ra Pudratchi tomonidan bir oydan ko'p vaqtga kechiktirilganda;

ishlarni tugatishning mazkur shartnomada belgilangan muddati Pudratchining aybi bilan bir oydan ortiq muddatga ko'paygan xolda, Pudratchi tomonidan qurilish ishlarini bajarish jadvaliga rioya etilmaganda;

Pudratchi tomonidan shartnoma shartlari qurilish me'yorlari va qoidalarida nazarda tutilgan ishlarning sifati pasayishiga olib keladigan darajada buzilganda;

qonun xujjatlariga muvofiq boshqa asoslar bo'yicha shartnomaning bekor qilinishini talab qilish xuquqiga ega.

55. Pudratchi:

ishlarning bajarilishi Pudratchiga bog'liq bo'lmagan sabablarga ko'ra Buyurtmachi tomonidan bir oydan ortiq muddatga to'xtatib qo'yilganda;

Buyurtmachi tomonidan moliyalashtirish shartlari bajarilmaganda;

qonun xujjatlariga muvofiq boshqa asoslar bo'yicha shartnomaning bekor qilinishini talab qilish xuquqiga ega.

56. Shartnoma bekor qilinganda Buyurtmachi va Pudratchining qo'shma qaroriga ko'ra tugallanmagan qurilish ob'ekti bir oy muddatda Buyurtmachiga topshiriladi, Buyurtmachi bajarilgan ishlar qiymatini Pudratchiga to'laydi.

57. Mazkur shartnomani bekor qilishga qaror qilgan tomon mazkur bo'lim qoidasiga muvofiq ikkinchi tomonga yozma bildirishnoma yuboradi.

58. Shartnoma bekor qilingan taqdirda aybdor tomon ikkinchi tomonga yetkazilgan zararni, shu jumladan boy berilgan foydani to'laydi.

59. Shartnomaning bir tomonlama bekor qilinishiga yo'l qo'yilmaydi, qonun xujjatlarida yoki mazkur shartnomada nazarda tutilgan xolatlar bundan mustasno.

Pudratchi tomonidan ushbu shartnoma majburiyatlari buzilgan taqdirda Buyurtmachi tomonidan shartnomani qonunda belgilangan tartibda bekor qilib, ob'ektni boshqa Pudatchiga berish bo'yicha taklif beradi.

XIV. Tomonlarning mulkiy javobgarligi.

60. Tomonlardan biri shartnomada majburiyatlarini bajarmagan yoki zarur darajada bajarmagan taqdirda aybdor tomon:

- ikkinchi tomonga yetkazilgan zararlarni to'laydi;

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksida, "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-xuquqiy bazasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunida, boshqa qonun xujjatlarida hamda mazkur shartnomada nazarda tutilgan tartibda boshqacha javobgarlikka tortiladi.

61. Mazkur shartnomaga tegishli ilovalarda ko'rsatilgan o'z majburiyatlariga rioya qilmaganligi, o'z vaqtida moliyalashtirilmaganligi va shartnomada belgilangan boshqa majburiyatlarni buzganligi uchun Buyurtmachi Pudratchiga kechiktirilgan har bir kun uchun majburiyatlarning bajarilmagan qismining 0,5 foizi miqdorida penya to'laydi, bunda penyaning umumiy summasi bajarilmagan ishlar yoki ko'rsatilmagan xizmatlar qiymatining 50 foizidan oshmasligi lozim.

Penya tulanishi Buyurtmachini shartnoma shartlari buzilishi tufayli yetkazilgan zararni qoplashdan ozod qilmaydi.

62. Shartnomaga muvofiq bajarilgan ishlar xajmini tasdiqlashdan asossiz ravishda bosh tortganligi uchun Buyurtmachi Pudratchiga o'zi tasdiqlashni rad etgan yoki bosh tortgan summaning 5 foizi miqdorida jarima to'laydi.

63. Pudratchi ob'ektni o'z vaqtida ishga tushirish bo'yicha o'z majburiyatlarini buzganligi uchun Buyurtmachiga muddati o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun majburiyatlarning bajarilmagan qismining 0,5 foizi miqdorida penya to'laydi, biroq bunda penyaning umumiy summasi ob'ekt shartnomaviy joriy qiymatining 50 foizidan oshmasligi lozim.

Buyurtmachi tomonidan topilgan nuqsonlar va kamchiliklar o'z vaqtida bartaraf etilmagani uchun Pudratchi Buyurtmachiga muddati o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun sifatsiz bajarilgan ishlar

qiymatining 0,4 foizi va shartnomasining 2-ilovasiga muvofiq ob'ektda har oyda bajarilishi lozim bo'lgan ish xajmlarini bajarmagan taqdirda, ishlar qiymatining 5 foizi miqdorida penya to'laydi, bunda penyaning umumiy summasi sifatsiz bajarilgan hamda bajarilmagan ishlar qiymatining 50 foizidan oshmasligi lozim.

Penya to'lash Pudratchini ishlarni bajarishning yoki xizmatlar ko'rsatishning kechikishi tufayli yetkazilgan zararlarni qoplashdan ozod qilmaydi.

64. Agar bajarilgan ishlar sifati belgilangan standartlarga, qurilish me'yorlari va qoidalariga, ish xujjatlariga muvofiq bo'lmasa, u xolda Buyurtmachi "Qurilish sohasida hududiy nazorat inspeksiyasi"ning xulosasi asosida ob'ektni qabul qilish va uning uchun xaq to'lashdan bosh tortishi, shuningdek Pudratchidan sifati zarur darajada bo'lmagan ishlar qiymatining 20 foizi miqdorida jarima undirish xuquqiga ega.

65. Shartnoma bo'yicha majburiyatlar bajarilmaganligi uchun mazkur moddada nazarda tutilgan jazolardan tashqari shartnomani buzgan tomon tarafidan qilingan xarajatlarda, mol-mulkning yo'qotilishi yoki shikastlanishida, shu jumladan boy berilgan foydada ifodalanadigan penya bilan qoplanmagan zararlarni qoplaydi.

66. Muddat o'tkazib yuborilganligi yoki majburiyatlarning boshqacha tarzda zarur darajada bajarilmaganligi uchun penya to'lash tomonlarni ushbu majburiyatlarni bajarishdan ozod kilmaydi.

XV. Tomonlarning korrupsiyaga qarshi kurash bo'yicha majburiyatlari.

67. Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishda Tomonlar korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha qoidalarga, shu jumladan amaldagi qonunlarga rioya etishini ta'minlaydi; ya'ni tomonlar bir-birlariga yoki davlat ishtirokidagi tashkilot xodimiga pora berish yoki pora berishda vositachilik qilish, moddiy yoki nomoddiy naf olishdan tiyilishi lozim. Tomonlar ushbu xarakatlarning oldini olish bo'yicha chora-tadbirlar qabul qilinishini kafolatlaydi.

68. Tomonlar korrupsiyaga qarshi qoidalar buzilganda yoki asosli gumonlar yuzaga kelganda darhol yozma ravishda (elektron pochta orqali) yoki ishonch telefoni orqali bir-birini xabardor qilish majburiyatini oladi. Bunda tomonlar yuzaga kelgan xolatga oydinlik kiritish maqsadida yozma izox talab qilish huquqigaega va murojaatni olgan tomon 10 (un) ish kuni mobaynida tushuntirish berishi yoki o'z fikrini bildirishi mumkin.

69. Mazkur bobning talablari bajarilmaganda, shu jumladan belgilangan muddatda korrupsion xaf-xatar bartaraf etilmasa, tomonlar amalga oshirgan choralari korrupsion xolatni pasayishiga olib kelmasa, boshqa tomon shartnomani bekor qilish huquqiga ega yoki uning ijrosini to'xtatib qo'yishi mumkin.

70. Shartnomaning tarafi va u tomonidan jalb qilingan shaxslar (yordamchi pudratchi tashkilotlar, agentlar va taraflar nazorati ostidagi boshqa shaxslar) tomonidan korrupsiyaga qarshi qo'shimcha shartlarga rioya etilmaganda, ikkinchi taraf shartnomani bir taraflama to'xtatib turishga, bekor qilishga hamda zararni qoplab berishni talab qilishga haqli bo'ladi.

XVI. Nizolarni hal etish tartibi

71. Ushbu shartnoma bo'yicha yoki u bilan bog'lik holda taraflar o'rtasida kelib chiqadigan barcha nizolar yozma talabnoma bildirish yo'li bilan, belgilangan tartibda hal etiladi.

72. Bildirilgan talabnomaga qonunda belgilangan 15 (o'n besh) kun muddat ichida javob olinmagan yoki talablar qanoatlantirilmagan taqdirda, o'zini xuquqi poymol qilingan deb hisoblovchi tomon nizoni hal qilish uchun da'vo arizasi bilan O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy kodeksi 33-moddasidabelgilangan tartibda tegishli iqtisodiy sudga murojaat qilishga haqli.

XVII. Aloxida shartlar.

73. Mazkur shartnoma imzolangandan keyin, mazkur shartnomaga tegishli bo'lgan tomonlar o'rtasidagi barcha oldingi yozma va og'zaki bitimlar, yozishmalar, tomonlarning o'zaro kelishuvlari o'z kuchini yo'qotadi.

74. Pudratchi qurilish ob'ektiga yoki uning aloxida qismlariga tegishli ish xujjatlarini Buyurtmachining yozma ruxsatisiz, yordachi pudratchilardan tashqari, biron-bir uchinchi tomonga sotish yoki berish xuquqiga ega bo'lmaydi.

75. Ob'ektga o'rnatiladigan jixozlar, butlovchi buyumlarning davlat standarti talablariga javob berishi va sifati uchun amaldagi qonun doirasida, o'rnatilgan tartibda tuzilgan komissiya ishtirokida monitoring o'rnatiladi va komissiya xulosasiga ko'ra butlashga ruxsat beriladi.

76. Yordamchi pudratchilar, qurilish materiallari va konstruksiyalarini yetkazib beruvchilar hamda ishlab chiqaruvchilarni tanlash bosh pudratchi tomonidan mazkur bosh pudrat shartnoma bo'yicha majburiyatlar saqlanib qolinishi sharti bilan Buyurtmachini xabardor qilgan xolda mustaqil amalga oshiriladi.

77. Mazkur shartnomaga barcha o'zgartirish va qo'shimchalar, agar ular yozma shaklda rasmiylashtirilgan va tomonlar ularni imzolashgan bo'lsa, xaqiqiy hisoblanadi.



78. Buyurtmachi bilan Pudratchi o'rtasidagi mazkur shartnomadan kelib chiqmaydigan yangi majburiyatlar paydo bo'lishiga olib keladigan har qanday kelishuvni tomonlar mazkur shartnomaga qo'shimchalar yoki o'zgartirishlar shaklida yozma ravishda tasdiqlashi kerak.

79. Agar Pudratchi shartnoma bo'yicha ishlar yakunlangandan keyin qurilish maydonida o'ziga tegishli mol-mulkni qoldirsa, u xolda Buyurtmachi Pudratchi qurilish maydonini ozod qilish sanasigacha bajarilgan ishlar uchun unga xaq to'lashni kechiktirishga xaqlidir.

80. Mazkur shartnomada nazarda tutilmagan boshqa barcha xollar uchun amaldagi qonun xujjatlari normalari qullaniladi.

- Mazkur shartnoma viloyat G'aznachilik boshqarmasidan ro'yxatdan o'tgandan so'ng kuchga kiradi va 2022 yil 31 dekabrga qadar amal qiladi.

XVIII. Tomonlarning bank rekvizitlari va yuridik manzillari:

Buyurtmachi:	Pudratchi:
Baxmal tuman Obodonlashtirish boshqarmasi O'smat shaxarchasi Samarqand ko'chasi ShXV 401722860082047045204110003 INN 201 029 502 OKONX 90211 O'ZB.Res.Moliya vazirligi YaXV 2340 2000 3001 0000 1010 Markaziy bank Toshkent shaxri XKKM INN 201 122 919 MFO 00014	"MANSUR STROY HOUSES" MCHJ Jizzax viloyati Zomin shaxri Bunyodkor MFY A.Temur ko'chasi 7 uy X/r 2020 8000 5051 4379 3001 Agrobank Zomin filiali INN 306 867 984 MFO 00131
Raxbar  M.Abdullaev	Raxbar  Sheraliev O'ktam

M.y.

M.y.

Ushbu shartnoma 2 (ikki) nusxada tuzildi va bir xil yuridik kuchga egadir.

**YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN
HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO‘G‘RISIDA HUQUQIY
XULOSA**

NB8373765855

1. Loyihaning turi : Shartnoma
2. Loyihaning nomi: **Xo‘jalik munosabatlari**
3. Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma’lumot: Baxmal tumani obodonlashtirish bo‘limi tomonidan 21.11.2022 yilda kiritilgan.

Loyiha amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

**Baxmal tumani
yuridik markaz
bosh yuristkonsulti:**



A.X.ERGASHEV

22.11.2022

**188321 лот юзасидан шаклланган дастлабки
баённоманинг муҳокамаси натижаси бўйича расмийлаштирилган электрон
баённомаси**

Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2022 йил 20 майдаги 276-сонли қарорига асосан дастлабки электрон баённома у расмийлаштирилган кундан бошлаб давлат харидларининг электрон тизимида муҳокама қилиш учун икки иш кунига жойлаштирилди.

Икки иш куни ичида иштирокчилар томонидан танлаш (тендер) ўтказиш натижалари бўйича келиб тушган эътирозлар харид комиссияси аъзолари томонидан ўрганилиб, эътирозлар асосли деб топилганлиги ҳақида қарор қабул қилинди

Муҳокама тугаган сана:

23.11.2022 09:25

Комиссия раиси:

ABDULLAYEV MINGBOY SUYUNOVICH

Таварнинг номи	Ўзбекистон Республикаси ҳудудидан олиб чиқариладиган автомобилларнинг қўлдан берилган қўлланмалари
Ўзбекистон Республикаси ҳудудидан олиб чиқариладиган автомобилларнинг қўлдан берилган қўлланмалари	Ўзбекистон Республикаси ҳудудидан олиб чиқариладиган автомобилларнинг қўлдан берилган қўлланмалари
Ўзбекистон Республикаси ҳудудидан олиб чиқариладиган автомобилларнинг қўлдан берилган қўлланмалари	Ўзбекистон Республикаси ҳудудидан олиб чиқариладиган автомобилларнинг қўлдан берилган қўлланмалари
Ўзбекистон Республикаси ҳудудидан олиб чиқариладиган автомобилларнинг қўлдан берилган қўлланмалари	Ўзбекистон Республикаси ҳудудидан олиб чиқариладиган автомобилларнинг қўлдан берилган қўлланмалари
Ўзбекистон Республикаси ҳудудидан олиб чиқариладиган автомобилларнинг қўлдан берилган қўлланмалари	Ўзбекистон Республикаси ҳудудидан олиб чиқариладиган автомобилларнинг қўлдан берилган қўлланмалари
Ўзбекистон Республикаси ҳудудидан олиб чиқариладиган автомобилларнинг қўлдан берилган қўлланмалари	Ўзбекистон Республикаси ҳудудидан олиб чиқариладиган автомобилларнинг қўлдан берилган қўлланмалари
Ўзбекистон Республикаси ҳудудидан олиб чиқариладиган автомобилларнинг қўлдан берилган қўлланмалари	Ўзбекистон Республикаси ҳудудидан олиб чиқариладиган автомобилларнинг қўлдан берилган қўлланмалари
Ўзбекистон Республикаси ҳудудидан олиб чиқариладиган автомобилларнинг қўлдан берилган қўлланмалари	Ўзбекистон Республикаси ҳудудидан олиб чиқариладиган автомобилларнинг қўлдан берилган қўлланмалари
Ўзбекистон Республикаси ҳудудидан олиб чиқариладиган автомобилларнинг қўлдан берилган қўлланмалари	Ўзбекистон Республикаси ҳудудидан олиб чиқариладиган автомобилларнинг қўлдан берилган қўлланмалари
Ўзбекистон Республикаси ҳудудидан олиб чиқариладиган автомобилларнинг қўлдан берилган қўлланмалари	Ўзбекистон Республикаси ҳудудидан олиб чиқариладиган автомобилларнинг қўлдан берилган қўлланмалари

По итогам тендера, в соответствии с условиями предоставления информации по технической части участникам предоставлены следующие данные:

Критерий №1 Таъабгар ташкилотнинг «Автомобил йўллари, қўлланмалари» соҳасидаги электрон рейтинг

Танлов тизимида

Спектр: Таъабгар ташкилотнинг «Автомобил йўллари, қўлланмалари» соҳасидаги электрон рейтинг

Обязательность: Критично

Иштирокчи	Мажбурийлик	Электрон рейтинг	Балл	Танлов оқибати	Причина	Примечание
Иштирокчи	Мажбурийлик	Электрон рейтинг	Балл	Танлов оқибати	Причина	Примечание

Протокол закупочной комиссии по отбору наилучшего предложения лот № 188321 на приобретение Жиззах вилоят Бахмал тумани Навбахор МФЙ Қорақурсоқ қишлоғидаги ички йўлларни жорий таъмирлаш

Способ проведения электронный

Дата 18.11.2022

Время рассмотрения 18.11.2022 15:24

Закупочная комиссия Ободонлаштириш бошкармаси, (Далее – Комиссия) в составе:

Председатель комиссии	ABDULLAYEV MINGBOY SUYUNOVICH	Raxbar	Baxmal TOB
Секретарь комиссии	MUXTOROV XAMDAM XOLIQULOVICH	Bosh xisobchi	Baxmal TOB
Член комиссии	KO'LIYEV NURIDDIN IBRAGIMOVICH	Bosh muxandis	Baxmal TOB
Член комиссии	NARMATOV AZAMAT XAZRATQULOVICH	Infartuzilma obyektlarini saqlash bulimi boshligi	Baxmal TOB
Член комиссии	SULTANOV RUSTAM SHAMSIDINOVICH	Obodonlashtirish obyektlarini saqlash bulimi boshligi	Baxmal TOB
Член комиссии	ATAMUROTOV BERDI ABDUROXMONOVICH	Texnik nazoratchi	Baxmal TOB

Рассмотрев поступивших предложений со стороны участников по опубликованному объявлению на специальном информационном портале от 18.11.2022 года № лота 188321.

Метод оценки предложений – Бальный метод (Весовой коэф.технико-квалификационной части: 98.00 / Весовой коэф. ценовой части: 2.00)

Мин. балл: 25

Предмет закупки:

Наименование товара (работы, услуги)	Услуги по ремонту и содержанию автомобильных дорог
Подробное описание	Жиззах вилоят Бахмал тумани Навбахор МФЙ Қорақурсоқ қишлоғидаги ички йўлларни жорий таъмирлаш (6,981 км)
Количество товара	1.00
Единица измерения	
Цена товара (услуги) за единицу	866 559 403.00
Стартовая сумма	866 559 403.00
Валюта	UZS

По итогам рассмотрения поступивших предложений по технической части участникам присвоены следующие баллы:

Критерий №1 Талабгор ташкилотнинг «Автомобил йўллари, кўприклар» соҳасидаги электрон рейтинг

Тип: Текстовое значение

Описание: Талабгор ташкилотнинг «Автомобил йўллари, кўприклар» соҳасидаги электрон рейтинг

Обязательность: Критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
MUSLUMBЕК	20	базадан	18	Экспертная		

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
STROY GROUP MCHJ		олинган электрон рейтинг маълумоти илова килинди				
MANSUR STROY HOUSES MCHJ	20	Малумот такдим килинди	20	Экспертная		
SHUXRAT-NODIRBEK XK	20	Илова килинди	0	Экспертная	Дисквалифицирован	Рейтинг мавжуд эмас
REAL JIZZAX MCHJ	20	Электрон рейтинг маълумотлари такдим етилади	0	Экспертная	Дисквалифицирован	Рейтинг мавжуд эмас
ЧФ Хирот Сервис	20	Маълумотнома такдим этилди	0	Экспертная	Дисквалифицирован	рейтинг мавжуд эмас
SANGZOR TA'MINOT INVEST MCHJ	20	такдим этилди	0	Экспертная	Дисквалифицирован	Рейтинг мавжуд эмас
MCHJ MD STROYDOR	20	илова килинди	20	Экспертная		
ЧП AVANGARD-ABSOLYUT-KAPITAL	20	Бажарган курилиш монтаж ишлари	0	Экспертная	Дисквалифицирован	Рейтин мавжуд эмас

Критерий №2 Талабгор ташкилотнинг солиқ ва мажбурий тўловлардан қарздорлиги мавжуд эмаслиги ҳамда шу кунга қадар йўл соҳасида бажарган ишлари тўғрисида шартномалар такдим килиш

Тип: Текстовое значение

Описание: Талабгор ташкилотнинг солиқ ва мажбурий тўловлардан қарздорлиги мавжуд эмаслиги ҳамда шу кунга қадар йўл соҳасида бажарган ишлари тўғрисида шартномалар такдим килиш

Обязательность: Критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
MUŞLUMBЕК STROY GROUP MCHJ	25	солиқ базасидан олинган қарздорлик йўқлиги тўғрисидаги маълумот ва бажарилган ишлар тўғрисида маълумотлар илова қилинди	25	Экспертная		
MANSUR STROY HOUSES MCHJ	25	Малумот такдим килинди	25	Экспертная		
SHUXRAT-NODIRBEK XK	25	Илова килинди	25	Экспертная		
REAL JIZZAX MCHJ	25	Маълумот такдим этилди	25	Экспертная		
ЧФ Хирот	25	Маълумотнома	25	Экспертная		

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
Сервис		такдим этилди				
SANGZOR TA' MINOT INVEST MCHJ	25	такдим этилди	25	Экспертная		
MCHJ MD STROYDOR	25	илова килинди	22	Экспертная		
ЧП AVANGARD-ABSOLYUT-KAPITAL	25	Қарзи мавжуд эмаслиги тўғрисида маълумотнома	25	Экспертная		

Критерий №3 Талабгор ташкилот кўрсатилган барча ишларни ўз вақтида сифатли бажариш учун зарур махсус техникаларига эга эканлиги тўғрисида маълумот

Тип: Текстовое значение

Описание: Талабгор ташкилот кўрсатилган барча ишларни ўз вақтида сифатли бажариш учун зарур махсус техникаларига эга эканлиги тўғрисида маълумот

Обязательность: Критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
MUSLUMBЕК STROY GROUP MCHJ	30	балансда мавжуд транспорт воситалари ва зарур механизмлар рўйхати ва тех.паспортлари илова қилинди	25	Экспертная		
MANSUR STROY HOUSES MCHJ	30	малумот такдим қилинди	30	Экспертная		
SHUXRAT-NODIRBEK XK	30	Илова қилинди	20	Экспертная		
REAL JIZZAX MCHJ	30	Балансдаги ва ижара асаосидаги техникалар рўйхати такдим этилади	19	Экспертная		
ЧФ Хирот Сервис	30	Маълумотнома такдим этилди	18	Экспертная		
SANGZOR TA' MINOT INVEST MCHJ	30	такдим этилди	25	Экспертная		
MCHJ MD STROYDOR	30	илова қилинди	30	Экспертная		
ЧП AVANGARD-ABSOLYUT-KAPITAL	30	Машина-механизмлар рўйхати ва хужжатлари илова қилинади	18	Экспертная		

Критерий №4 Талабгор ташкилотнинг зарур ишчи ходимлари тўғрисидаги маълумот QR кодди mexnat.uz сайитидан олинган маълумотлар

Тип: Текстовое значение

Описание: Талабгор ташкилотнинг зарур ишчи ходимлари тўғрисидаги маълумот QR кодди mexnat.uz сайитидан олинган маълумотлар

Обязательность: Критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
MUSLUMBEK STROY GROUP MCHJ	25	мехнат вазирлигидан махсус сертификат берилган доимий ишчилари ва мутахассислари тўғрисидаги маълумот илова қилинди	25	Экспертная		
MANSUR STROY HOUSES MCHJ	25	Малумот такдим қилинди	25	Экспертная		
SHUXRAT-NODIRBEK XK	25	Илова қилинди	20	Экспертная		
REAL JIZZAX MCHJ	25	Малакали ишчи ходимлар руйхати такдим қилинади	19	Экспертная		
ЧФ Хирот Сервис	25	Маълумотнома такдим этилди	23	Экспертная		
SANGZOR TA'MINOT INVEST MCHJ	25	такдим этилди	24	Экспертная		
MCHJ MD STROYDOR	25	илова қилинди	22	Экспертная		
ЧП AVANGARD-ABSOLYUT-KAPITAL	25	Ишчи ходимлари тўғрисидаги маълумот QR кодди mexnat.uz сайитидан олинган маълумотлари илова қилинади	16	Экспертная		

Оценка участников финансовой части составила:

Наименование участника	Стартовая сумма	Предлагаемая сумма	Сумма с учетом конвертации (UZS)	Применение преференции	Общее значение (UZS)	Дата предложения	Оценка стоимости (балл)
MUSLUMBEK STROY GROUP MCHJ	866 559 403.00	865 000 000.00 UZS	865 000 000.00	00.00	865 000 000.00	17.11.2022 11:01:51	1.9422
MANSUR STROY HOUSES MCHJ	866 559 403.00	863 000 000.00 UZS	863 000 000.00	00.00	863 000 000.00	17.11.2022 19:35:22	1.9467
MCHJ MD STROYDOR	866 559 403.00	840 000 000.00 UZS	840 000 000.00	00.00	840 000 000.00	18.11.2022 14:57:40	2

Итоговая оценка участников включая финансовой части составила:

Наименование участника	Общий балл по технической части	Общий балл по финансовой части	Итоговый балл
ЧФ Хирот Сервис	Не прошел	Не прошел	Не прошел
SHUXRAT-NODIRBEK XK	Не прошел	Не прошел	Не прошел

MUSLUMBЕК STROY GROUP MCHJ	91.14	1.9422	93.0822
MANSUR STROY HOUSES MCHJ	98	1.9467	99.9467
MCHJ MD STROYDOR	92.12	2	94.12
SANGZOR TA'MINOT INVEST MCHJ	He прошел	He прошел	He прошел
ЧП AVANGARD-ABSOLYUT-KAPITAL	He прошел	He прошел	He прошел
REAL JIZZAX MCHJ	He прошел	He прошел	He прошел

Закупочная комиссия по отбору наилучшего предложения лот № 188321 от 18.11.2022 года на приобретение Жиззах вилоят Бахмал тумани Навбахор МФЙ Қорақурсоқ қишлоғидаги ички йўлларни жорий таъмирлаш определила победителем:

MANSUR STROY HOUSES MCHJ
306867894

и резервный исполнитель: MCHJ MD STROYDOR (305400494)

Проголосовали

Комиссия	Ф.И.О.	Голосование	Комментарии
Председатель комиссии	ABDULLAYEV MINGBOY SUYUNOVICH	Согласен	
Член комиссии	KO'LIYEV NURIDDIN IBRAGIMOVICH	Согласен	
Член комиссии	NARMATOV AZAMAT XAZRATQULOVICH	Согласен	
Член комиссии	SULTANOV RUSTAM SHAMSIDINOVICH	Согласен	
Член комиссии	ATAMUROTOV BERDI ABDUROXMONOVICH	Согласен	

Протокол закупочной комиссии подписан посредством ЭЦП